

**"AUTIZM" SINDROMI. "YOMG'IR BOLALARI".**

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti  
Maxsus pedagogika kafedrasida dozent M. U. Xamidova  
Ilyosjonova Saodat Azimjon qizi  
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti  
Special pedagogy fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Autizm sindromi haqida. Autizm sindromli bolalar hulq-atvori kelib chiqish sabablari. Ular bilan korreksion ishlar olib borish usullari. Har bir Autizm sindromli inson turli hususiyatga ega va ulardan daholar ham chiqqan. Nega aynan Autizmlar yomg'ir bolalari deyilishi haqida. Autizm kasalliklar tasnifi va diagnostika haqida fikir yuritiladi.

**Kalit so'z:** Autizm, kommunikativ, gospitalizm, mutizm, genetika, logoped, psixolog, exolaliya.

**Абстрактный:** Это статья о синдроме аутизма. Поведение детей с аутизмом. Методы коррекционной работы с ними. У каждого человека с аутизмом. Есть известные люди с аутизмом. Почему именно детей с синдромом аутизма называют йомир – детьми. Классификация и диагностика аутистических заболеваний будет рассмотрено.

**Ключевое слова:** Аутизм, коррекция, коммуникативный, госпитализм, мутизм, генетика, логопед, психолог, эхолалия.

**Abstract:** This article is about autism syndrome. Behavior of children with autism. Methods of correctional work with them. Every person with autism. There are famous people with autism. Why exactly children with autism syndrome are called yomirs - children. Classification and diagnostics of autistic diseases will be considered.

**Key words:** Autism, correction, communicative, hospitalism, mutism, genetics, speech therapist, psychologist, echolalia.

Autizm – keng ma'noda, odatda aloqaga kirishmaslik "yovvoyilik" aloqadan özini olib qochish, özini dunyosida yashash ma'nosini anglatadi. Autizm – grekcha "autos" ya'ni "özi" degan ma'noni anglatib reallikdan uzoqlashish, tashqi dunyodan ajralish va tashqi olam bilan kommunikativ funksiyaning buzilishi kabilarni öz ichiga oladi. Shu vaqtgacha autizm kasalligini genetik kasallik deb hisoblashgan. Lekin söngi yillarda autizm sindromi bilan kurashayotganlar soni keskin ortib bormoqda jumladan ba'zilar bu sindromni kelib chiqishi irsiy, genetik desa, ba'zilar bu homiladorlik davrida ba'zi vitaminlar yetishmasligi yoki ba'zi moddalarning ona organizmida oshib ketishi va kamayib ketishi deb na'zarda tutishmoqda.

Yana shuni ta'kidlash joyizki bu sindrom hozrgi kunda bolalarning pedagogik qarovsizlik, yoki turli texnik vositalariga mukkasidan ketish ya'ni bo'g'lanib qolishi natijasida ham yuzaga kelmoqda deb ta'kidlashmoqda. Hozrgi kunda bu sindromning nimadan kelib chiqishi aniq e'tirof etilmagan. Shunchaki olimlar ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar olib bormoqda. Kundan – kunga bu sindromning ortishi bolalarning ruhiyatining buzilishiga atrof-olamdan chetlashishga kamunikativ ( aloqa)ning cheklanishiga olib kelmoqda.

Bugungi kunga kelib dunyoda 6,5million autistlar rasman ròyxatga olingan. Sòngi 30yil ichida ushbu kasallikning statistikasi keskin òsdi: Jahon Autizm Tashkilotining ma'lumotlariga kòra 2008 – yilda 150 bolada autizm 1 holati qayd etilgan. 10 yil ichida autizm bolalar soni 10 barobar oshdi. Autizm 21 asr kasalligi deb ham atalmoqda.

Autizm kasalligi yoshga qarab quyidagilarga bòlinadi

- Erta bolalik autizmi 2yoshgacha
- Bolalik autizmi 2 – 11 yosh
- Òsmirlik autizmi 11 -18 yoshlargacha.

Autizm atamasi birinchi bor shveysar psixiatri Eygen Bleyler tomonidan 1910 - yilda shizofreniya kasalligining belgilaridan biri sifatida ishlatiladi. Autizm holatida bola faoliyati sustlashadi yoki keraksiz, noaniq faoliyat bilan shu'gullanadi. Bolaning hulq-atvori buziladi. Òyin faoliyati, qiziqishi sustlashadi, ma'yus holatda yuradi, kattalar va tengdoshlari bn aloqada bòlmaydi, hech kim bilan gaplashishni istamaydi, ba'zilarida indamaslik (mutizm holati) kuzatiladi.

Autizm ba'zan bolaning xarakteri kuchsiz bòlsa, boshqa hollarda uning kòrish yoki eshitish qobiliyatlarining yetlicha bòlmasligi, aqliy rivojlanishdan orqada ya'ni aloqa qilish funksiyasining nevrotik buzilishlari yoki o'g'ir gospitalizm ( bolalarning ilk yoshlarida ijtimoiy jihatdan izolatsiya qilinishi natijasida yuzaga kelgan aloqa qilishning surunkali taqchilligi ) oqibatida kelib chiqadi.

Autizm sindromi bilan bo'g'liq bòlgan asosiy muammolar quyidagilardan iborat

- bolada intellektual layoqat past bòladi
- òsmir yoshdagilar ruhiy tushkunlik holatiga tushishadi, ularda bezovtalik kuzatiladi.

- ayrim bolalarda òsmirlik davriga kelib epileptik tutqanoqlar kuzatilishi mumkin.

- 40- 70% bemorlarda uyqu bilan bo'g'liq muammolar yuzaga keladi.

Bolalarda autizm uchun zarur bòlgan davolanish quyidagilarni òz ichiga oladi:

- xulq-atvor terapiyasi
- logoped terapiyasi
- ijtimoiy kònikmalarni òrgatish
- mehnat terapiyasi

- turli xil o'yinlar
- psixogimnastika
- oyna oldida shaxsiy yuz ifodalarini tekshirish
- har xil intonatsiya hayvonlarga taqlid qilish
- art terapiya
- qum terapiyasi.

Autistik kasalliklar tasnifi;

- bolalik autizmi ( F84.0)
- atilik autizm (3yildan keyin boshlanadi) ( F84.1 )
- Retta sindromi ( F84.2)
- Asperger sindromi – autistik psixopatiya (F84.5)

Diagnostika

Bunda bolalar har tomonlama tekshiriladi

- bolalar psixiatri
- logoped
- nevrolog
- audiolog
- psixolog
- maxsus pedagog

Shundan sòng yakuniy natija qòyiladi.

Autizm insonlarning aksariyati iste'dodli va qobiliyatli shaxslardir. Kòplab taniqli shaxslar autizmning turli shakllaridan aziyat chekkan. Ular orasida ; Albert Eynshteyn, Isak Nyuton, Sokrat, Darwin, Leonardo da Vinchi, Visent Van Gog va boshqalar.

Autizm – kòpincha o'g'il bolalarda kòp uchraydi. Qizlarda autizm kam uchraydi va 100 kishidan 5-7 ta holatda.

Nega Autizm yomg'ir bolalari ?

“Yomg'ir odam” mashhur Amerika filimining nomi bòlib, unda bosh qahramon ismi Raymond bòlgan va uning ukasi Charli ( Tom Kruz) bolaligida uning ismini Yomg'ir odam sifatida eshitgan Raymond ajoyib matematik qobiliyatlarga ega bòlgan skriptli autist bòladi. U bemalol ongida eng murakkab arifmetik hisob kitoblarni amalga oshiradi. Ammo u besh yoshli bola kabi, dòkonga chiqolmas edi. Ushbu filmdan keyin hatto “ Daholar yomg'ir odamlari” degan ibora paydo bòlgan.

Xulosa òrnida shuni aytishimiz joizki har bir Autizm ham xulq atvori yomon emas va Autizm sindromli insonlardan ham daholar chiqqan chiqmoqda ham. Biz albatta bunday bolalarni jamiyatga qòshishimiz ularni muloqotga òrgatmo'g'imiz ularni atrofdagilardan kam emasligini va ularning ham òz qobiliyatlari borligini anglatmo'g'imiz va anglamo'g'imiz darkor.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Maxsus pedagogika -T “Fan va texnologiya”, 2022.
2. Nurmatova D.G “ Autist bolalarni ijtimoiy – psixologik moshlashtirish tizimini takomillashtirishning nazariy metodologik asoslari” 2020.
3. Вроно М.Ш О риннем детском аутизме (синдром каннера) – педиатрия 1976.
4. Avezova D.G “Autizm sindromi bolalarda kognetuv jarayonlar buzilishining psixologik omillari.2022.
5. Nurmatova D.G “Autizm sindromli bolalarning ijtimoiylashuvida psixokorreksion vazifalar.2021.